

124. Qiymatga doir masalalar yechish

Yondosh mavzu:
qog'oz pullar.

Sxema, qiymat,
miqdor, narx.



1. Har bir to'plamda qancha pul borligini hisoblang.



70 ta kupyur



90 ta kupyur



35 ta kupyur



170 ta kupyur

2. Agar:

- a) narx 3 marta ortsa;
- b) narx 4 marta pasaysa;
- d) aynan shu narxda 10 marta ko'p tovar sotib olinsa, tovar qiymati qanday o'zgaradi?

3. Qiymat formulasidan foydalanib, noma'lum kattaliklarni toping.

p	n	C
35 000 so'm/kg	24 kg	?
?	12 dona	720 000 so'm
7 000 so'm/m	?	84 000 so'm

Qiymatga doir masalalarda shartni jadvallar yordamida yozish qulay. Bu, ayniqsa, masala ikkita obyektни sotish yoki sotib olishni tavsiflovchi holatlarda qulaydir.



p	n	C

124. Qiymatga doir masalalar yechish



4. Bir shisha suvning narxi 3000 so'm. 20000 so'mga necha shisha suv sotib olish mumkin? Qancha qaytim qaytadi?

p	n	C
3000 so'm/dona	?	20000 so'm Qaytim – ?



5. Bir kilogramm grechka 16 ming 500 so'm, bir kilogramm guruch grechkadan 9 ming 500 so'm qimmat. 5kg grechka va 3kg guruch xarid qilindi. Barcha xaridning umumiy qiymati qanday?

	p	n	C
Grechka	16500 so'm/kg	5 kg	?
Guruch	?, 9500 so'm/kg qimmat	3 kg	?



6. 600000 so'mga 24 kg oq guruch yoki 10 kg devzira guruch sotib olish mumkin. 1 kg devzira guruch 1 kg oq guruchdan qancha qimmat?



	p	n	C
Oq guruch	?	24 kg	600000 so'm
Devzira guruch	?	10 kg	600000 so'm



7. $128769 + 337114 = 465883$ ekanini bilgan holda, quyidagilarni toping:

$$128770 + 337114$$

$$465883 - 128769$$

$$128768 + 337113$$

$$128769 + 337113$$

$$465883 - 337114$$

$$128768 + 337115$$

$$128770 + 337115$$

$$465882 - 337114$$

$$128779 + 337124$$



8. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

Akmal 12 000 so'mga daftarlar uchun muqovalar to'plami va har biri 1 500 so'mdan 4 dona qalam sotib olishi kerak. Agar u quyida keltirilgan kupyurlardan foydalansa, har biridan qancha qaytim oladi?



9. Agar:

- a) faqat birinchi ko'paytuvchi 3 marta orttirilsa;
 - b) har bir ko'paytuvchi 3 marta orttirilsa,
- ko'paytma qanday o'zgaradi?



10. Akmal bilan Jasur pul to'plashmoqda. Oy oxirida Jasur Akmalga dedi:

– Agar menga 30 ming so'm bersang, pulim sening pulingdan 5 marta ko'p bo'ladi.

Akmal javob berdi:

– Yaxshisi, sen menga 30 ming so'm ber, shunda pulimiz baravardan bo'ladi.

Bolalarning har biri qancha pul to'plagan?



11. Ifodani hisoblang. Pul tarixidagi eng katta banknot qaysi davlatda bo'lgan? Uning o'lchami 33×23 cm bo'lib, u A4 varag'idan kattaroq bo'lgan.

$$860 \cdot 920 - 6750 : 5 \cdot (37 + 27)$$

O 86 400

I 791 200

X 64

T 1 350

E 57

Y 704 800

L 703 820

S 95 200



12. Daftaringizga jadval chizing va uni to'ldiring. Masalani yeching.

Onasi Jasurga 120 ming so'm berdi. U bu pulning 65 ming so'miga kitob, 32 ming so'miga qalamdon va yana 3 ming so'mdan 4 ta ruchka sotib oldi. Unda qancha pul qoldi?